

O'zbek Madaniyatida Raqamlarning Ahamiyati

Ermo'minova Maftuna G'ofurovna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek tilidagi raqamlar ning lingvomadaniy xususiyatlari xalqning madaniyati, an'analari va tarixiy tajribalarini aks ettiradi. Tilning tarixiy-madaniy zamini bilan chuqur bog'lanib, turli ramziy ma'nolarni o'zida mujassam etgan. Lingvomadaniy tahlil bu sonli iboralar nafaqat raqamlar, balki o'zbek madaniyatida chuqur ildiz otgan timsol sifatida ham qo'llanishini tushunish imkonini beradi.

O'zbek xalqi tarixini, hozirgi zamonaviy dunyoni raqamlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Jahon taraqqiyotidagi o'zgarishlarni ham raqamlarsiz tasvirlab bo'lmaydi. Zero, raqamlar oddiy arifmetik birlik emas, balki bir millatning urf-odat, an'analari, millat tarixini aks ettiruvchi vositadir.

“O'zbek tilining izohli lug'ati” da raqam tushunchasiga quydagicha ta'rif berilgan:

Raqam (arabcha – son, miqdor; sana; nomer). 1. Sonni ifodalovchi grafik belgi. Bu raqamlar har qanday balandparvoz gaplardan qudratli va rad qilib bo'lmas faktlardir. (S.Ahmad. — “Ufq”) 2. Biror son bilan ifodilangan miqdor, ko'rsatkich. 3. Bir turdagi predmetlarga tartib bilan qo'yilgan son; nomer. Tartib raqami.

Arab raqamlar — o'nta matematik belgi 0,1,2,3,4,5,6,7,8,9. Bu raqamlar bilan istalgan kata yoki kichik sonni yozish mumkin. Arablar Iroq, Misr, Suriyani istilo qilgunga qadar yunon alifbosiga asoslangan raqamlardan foydalanganlar. VI-asrdan boshlab arab alifbosi harflari bilan ifodalanuvchi raqamlar qo'llanilgan. Al-Xorazmiy Hindistonda kashf etilgan o'n raqamdan iborat martabali sanoq tizimini o'rgandi, soddalashtirdi, kengaytirdi va birinchi marta arab tilida bayon qildi. Arablar ushbu tizimni yanada takomillashtirgan holda, uni o'sha davrdagi islom olamiga yoydilar. Natijada bu tizim “Arab raqamlari” deb nomlana boshlagan.

O'zbek madaniyatida raqamlar o'z ramziy ma'nolariga ega. Masalan, nol raqami ko'pincha bo'shliq yoki hech narsa holatning ifodasi sifatida qabul qilinadi, yana bir ma'noda boshlanish, ya'ni bir jarayonning boshlanishi yoki boshlanish nuqtasi sifatida qaraladi.

Bir raqami birlik, yaxlitlik, yagona yaratgan ma'nosida ishlatiladi. Bir raqami ko'pincha Oллоhga ishora qilishi mumkin. Birlik va hamjihatlik ma'nolarida ham qo'llaniladi.

Ikki raqami juftlik va qarama - qarshilikni ifodalaydi. Hayotning ikki tomoni (yaxshilik va yomonlik, yorug'lik va qorong'ulik) ma'nosida ishlatiladi.

Uch raqami o'zbek xalqi e'tiqodlarida o'zgacha ahamiyatga ega. Uch qarindosh (ota, ona, farzand) yoki uch qadam kabi tushunchalarida ham uch raqami mavjud.

To'rt raqami barqarorlikni ifodalaydi, to'rt tomonlama (shimol, janub, sharq, g'arb) yoki to'rt fasl tushunchalari bilan bog'liq.

Besh raqami erkinlik, o'zgarish, sarguzasht ma'nolarini ifodalaydi. Islom dinida besh muhim amr mavjud: namoz, zakot, ro'za, haj, kalima shahodat. Shuningdek musulmonlar besh vaqt namoz o'qiydi. Bu raqam islom dunyosida muhim ahamiyatga ega.

Olti raqami Islomda olti kun ichida dunyoning yaratilgani zikr qilinadi. Bu raqam yaratish jarayonini va tugallikni ifodalaydi. Shuningdek, oilaviy hayot, himoya, mas'uliyat va mehr - oqibatni ifodalaydi.

¹ maftunagofurovna10061992@gmail.com



O'zbek madaniyatida yetti raqami mukammallik, qudrat bilan bog'lanadi. Dinimizda ham yetti osmon, yetti yer tushunchalari islom dinining muqaddas kitobi Qu'ronda zikr etilgan. Haj amallari davomida Kabani yetti marta aylanib, tavof qilishadi, shaytonga yetti marta tosh otishadi. Ko'pgina xalqlarda yetti raqami omadli hisoblanadi. O'zbek xalqining tilida "yetti avlod", "yetti kun", "yetti iqlim" kabi iboralar ko'p qo'llaniladi.

Sakkiz raqami yon tomonga aylantirilganda cheksizlik belgisini hosil qiladi. Bu insonlar aqlida cheksiz energiya, vaqt va imkoniyatlar ramzi sifatida talqin qilinadi. Islom dinida jannatning sakkiz darvozasi borligi haqida aytiladi. O'zbek xalq amaliy san'atida sakkiz qirrali yulduz shakldagi naqshlar keng qo'llaniladi, bu naqshlar uyg'unlik va barqarorlik ramzi hisoblanadi. O'zbek xalqining diniy tasavvurida baxt, sevgi, najot va mukofot kabi ramziy ma'nolarda qo'llanilgan.

To'qqiz raqami ham xuddi sakkiz raqami singari, doimiy barqarorlikni va yuksalish ramzi sifatida ishlatiladi. To'qqiz raqami, ayniqsa, homiladorlik davrida juda muhim ramziy ma'noga ega, nafaqat o'zbek madaniyatida, boshqa xalqlarda ham homiladorlik 9 oyga teng bo'lib, bu vaqt davomida yangi hayotning rivojlanishi, o'sishi va tug'ilishi jarayoni amalga oshadi. To'qqiz oy davri – bu mukammallik, tugallik va yangi hayotning boshlanishi ramzi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak raqamlar insoniyat uchun nafaqat matematik tushunchalar, balki chuqur madaniy, diniy, falsafiy, ilmiy ma'nolarga ega. Ular odamlarning dunyoni qanday anglashlari, tushunishlari va uni izohlashlari bilan bevosita bog'liqdir. Raqamlarning ramziy ma'nolari bizni atrofdagi voqealarni va dunyoning tartibini yanada chuqurroq tushunishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abduazizov A. A. (2007). Til va tafakkur. Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti.
2. Jo'raev N. (2011). O'zbek tilida raqamlar va ularning semantik xususiyatlari. Toshkent: Fan.
3. Nematova D. (2020). "O'zbek xalq og'zaki ijodida raqamlarning lingvomadaniy funksiyasi" // Filologiya masalalari, №2, 45–51-betlar.
4. Turdieva M. (2019). "O'zbek tilidagi maqollarda raqamlarning qo'llanishi" // O'zbek tili va adabiyoti, №3, 67–72-betlar.
5. Karimov M. (2018). Etno-lingvistika asoslari. Toshkent: "Yangi asr avlodi".
6. Yo'ldoshev M. (2005). O'zbek tili stilistikasi. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti.
7. Urinboyeva G. (2021). "O'zbek tilida son birliklarining milliy xususiyatlari" // Til va adabiyot ta'limi, №4.
8. Xudoyberganova D. (2015). "O'zbek tilidagi raqamlar va ularning metaforik qo'llanilishi" // Filologiya va tillarni o'qitish, №1.
9. O'zbek tilining izohli lug'ati. (2006). 5 jildlik. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi".
10. Alieva Z. (2020). "Raqamlarning ramziy talqini: o'zbek va turkiy tillar solishtirmasi" // Turkologiya muammolari, №2, 33–40-betlar.

